

YURTIMIZDA IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN YARATILGAN QULAYLIKLAR VA SHART-SHAROITLAR

Shog‘ulomova Zilola Saydaxmatovna

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan
1-son kasb-hunar maktabi Ishlab chiqish ta’limi ustasi*

Annotatsiya: *Yurtimizda imkoniyati cheklangan shaxslarga jamiyat va davlat tomonidan ko‘mak va yordam berish, ularni ijtimoiy-siyosiy hayotga faol jalb etishga qaratilgan keng ko‘lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda ushbu toifaga mansub fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashga ixtisoslashgan bir qator tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. Respublikamizda maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari va maktab internatlar, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun kasb-hunar maktablari mavjud bo‘lib, ushbu ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu maqolada yurtimizda imkoniyati cheklangan shaxslarga yaratilgan shart-sharoitlar haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *imkoniyati cheklangan shaxs, jamiyat, qaror, ta’lim, kasb, ish, o‘quvchi, sharoit, teng huquqlilik, inklyuziv ta’lim,*

Bugungi kunda mamlakatimizda «Inson qadri uchun» g‘oyasi va joriy islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan «Inson – jamiyat – davlat» degan yondashuv barcha sohalardagi yangilanishlarning mazmun mohiyatiga chuqur singib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng qamrovli islohotlar mantiqiy ketma-ketlikda va samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi, o‘z navbatida, yurtimizda inson qadrini ulug‘lashga, inson manfaatlariga, shu jumladan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Ta’lim tizimini rivojlantirishning umumiy jihatlari o‘quvchilar uchun teng shart-sharoit yaratish bilan bog‘liq jarayonlar orqali xarakterlanadi. Bu borada nafaqat ta’lim oluvchining moddiy turmush tarzi, balki uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Ayniqsa ushbu yo‘nalishda imkoniyati cheklangan yoshlarga o‘quv jarayonini tashkil qilishda tegishli sharoit yaratish talab etiladi.

Dunyo jamiyatida imkoniyati cheklangan bo‘lishiga qaramay, turli sohalarda ulkan cho‘qqilarni zabt etgan insonlar kam emas. Yuksak diniy maqomlarga erishgan yoki sportchi, mashhur san’atkor, hatto siyosiy yetakchi bo‘lgan shaxslar ham talaygina. Bularning barchasi ichki olamning, qalb va ruhning salomatligida. Yurtimizda ham mana shunday insonlar uchun, qulay shart-sharoitlar, bepul va sifatli ta’lim olish uchun imkoniyatlar mavjud.

Inklyuziv ta’lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi) bu davlat siyosati

bo'lib, normal rivojlanishdagi va maxsus ehtiyojli bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar oilaning faol ishtirokida umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni va ijtimoiy hayotga moslashtirishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Har bir mamlakatda inklyuziv ta'lim tizimi o'sha yerdagi mavjud an'analar, urf-odat va hukmron qadriyatlar asosida shakllanadi. Shuningdek turli xalqlarning mentaliteti hamda o'quv tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qonunchilik jabhasi bu boradagi ustuvor yo'nalishni yo'lga qo'yishda samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini ta'minlashga xizmat qilayotgan me'yoriy-huquqiy mexanizmning rolini alohida qayd qilish o'rinlidir. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish jarayoni bosqichli tizimga ega. Prezidentimizning „Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2020-2025- yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ushbu bosqichning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Imkoniyati cheklanganlarga ta'lim berish jarayoni ularning kelajakda mehnat faoliyatiga qo'shilishi, jamiyat bilan erkin ijtimoiy munoabatlarni saqlab qolishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga yaratilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mohiyati shundan iboratki, inklyuziv ta'lim asosida o'rta yosh davrlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy hayotga qo'shish va ularni sog'lom shaxslar qatorida ijtimoiy hayotda ishtirok etishini ta'minlashdir.

Yurtimizda qabul qilingan va amalda qo'llanilayotgan me'yoriy hujjatlar asosida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni ham umum ta'lim muassasalarida teng huquqlilik asosida o'qitish va tarbiyalash masalasi huquqiy jihatdan kafolatlandi. Chunki alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limining samarali tashkil etilishi natijasida:

- imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning moddiy va ma'naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;

- imkoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o'rtasida tenghuquqlilik ta'minlanadi, do'stona munosabatlar shakllanadi;

- maxsus ehtiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;

- jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;

- barcha uchun ta'lim sifati yanada yaxshilanadi;

- imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;

- imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta'minlanadi, ya'ni jamiyatda boshqalar ko'magiga qaramlar soni kamayadi.

Yuqori samaradorlikka erishish uchun inklyuziv ta'limda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- barcha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun zarur moddiy-texnik, psixologo-pedagogik va korreksion yo'naltiruvchi sharoitlarni yaratish;

- o'quvchilar o'rtasidagi ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ta'minlash;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- jamiyat rivojining faol ishtirokchilarini ko'paytirish, ishsizlar sonini yanada kamaytirish;

- barcha uchun ta'lim sifatini oshirish asosida davlat iqtisodini o'stirish va xalq ma'naviyatini yuksaltirish.

Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limi asosan umumiy, maxsus ehtiyojli bolalarning yashash joyiga yaqin bo'lgan muassasalarda tashkil etiladi. Bunday muassasalar barcha bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o'qitish usullari va ta'lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi hamda ularning imkoniyatlari, o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, tabaqalashtirilgan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etadi.

Imkoniyati cheklanganlar uchun ish topish ancha qiyin, chunki aksariyat hollarda ular mehnatga layoqatli odamning ishini bajara olmaydi. Afsuski, bu toifadagi odamlar jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlarga ham duch kelishadi. Shularni inobatga olgan holda O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, to'siqsiz muhit yaratish, jamiyatning to'laqonli a'zosi qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, ularni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya ajratilmoqda. Bunda, 2022 yilda mingga yaqin ish beruvchilarga 1805 nafar nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilganligi uchun subsidiya ajratilgan bo'lsa, 2023- yilning 1 sentabr holatiga 659 ta ish beruvchilarga 1412 nafar nogironligi bor shaxslarni ishga qabul qilganligi uchun 6 oygacha BHM 1,5 baravari miqdorida subsidiya berildi.

Imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, nogironlik pensiya va nafaqalari ham oshirilmoqda. Shuningdek, 2022 yilning 1 apreldan boshlab o'zgarlar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan

oilalarga har oyda yangi turdagi parvarishlash nafaqasi joriy etildi. Uning joriy etilishi natijasida, 64 mingga yaqin oilalarga parvarishlash nafaqasi to'lab beriladi.

2023 yil 1 yanvardan boshlab I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga pensiya tayinlanganidan keyin kamida 1 yillik ish staji mavjud bo'lgan taqdirda ish staji va ish haqini inobatga olgan holda har 2 yilda bir marotaba qayta hisoblab chiqiladi. Natijada, 2023 yilda 75 mingdan ziyod nogironligi bo'lgan shaxslarning pensiyalari qayta hisob-kitob qilinib, o'rtacha 300 ming so'mgacha oshirildi. Shuningdek, kelgusida nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin mehnat faoliyatini olib borgan 43 mingdan ziyod nogironligi bo'lgan shaxslarning pensiyalari har 2 yilda (ish staji va oylik ish haqidan kelib chiqib) bir marotaba qayta hisoblab boriladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun 2023 yil 1 yanvardan e'tiboran Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda 275 mlrd so'm mablag' ajratildi.

«To'siqsiz turizm» dasturi. 2024 yilning 1 yanvaridan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarning sayohat qilishlari uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan «To'siqsiz turizm» dasturi amalga oshirilib kelinmoqda. Dastur doirasida har yili «Sayohat barcha uchun!» loyihasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ming nafardan nogironligi bo'lgan shaxslarning respublikaning turizm salohiyati yuqori bo'lgan shaharlariga bepul sayohatlari tashkil qilinadi. Shuningdek, turizm, madaniy meros, konsert-tomosha obektlari hamda aeroport, avto va temiryo'l vokzallarida nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi uchun zarur infratuzilma yaratish mexanizmlari joriy qilingan.

Imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish faqat maxsus xizmatlarni taqdim etishdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ularga kamsitish nazari bilan qarashga barham beruvchi chora-tadbirlar amalga oshirilishini, imkoniyati cheklangan shaxslarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari ta'minlanishini kafolatlovchi hamda bu boradagi to'siqlarni olib tashlovchi qonunlar, dasturlar qabul qilinishini ham nazarda tutadi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqasi vakillariga katta ahamiyat qaratila boshlandi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Unda jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun qulay turmush sharoitini yaratish, ularning bandligini ta'minlash, ta'lim olish va sport bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratib berish kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu qonun asosida 100 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi nogironlikning oldini olish, ularni ijtimoiy himoya qilish masalasi dolzarb vazifa darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi. «Pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish» kabi vazifalar ularga nisbatan ijtimoiy model asosidagi munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: «Insonlarning nogironlarga nisbatan munosabatini o‘zgartirish, atrofdagilarni ularning jamiyatda to‘liq va teng huquqli ishtiroki haqida xabardor qilish nogironlarning dolzarb muammolarini hal etishda o‘ta muhim va birinchi navbatdagi qadam hisoblanadi». Bu esa O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosatini tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, sohada olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini ochib berish zaruratini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash haqidagi ko‘rsatmalar va nutqlari.
3. L. Mo‘minova, Sh. Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
4. P. Po‘latova, L. Nurmuxamedova, Sh. Amirsaidova. Maxsus pedagogika -T.: Fan va texnologiyalar, 2014.
5. www.lex.uz
6. www.yuz.uz
7. www.norma.uz
8. www.kun.uz